

UOK:636.32/38.082.

## AVLODLARNING EKSTERER VA TANA TUZILISH INDEKS KO'RSATKICHLARI

*A.Abdixalilov - tayanch doktorant*

*B.S.Mamatov - ilmiy rahbar q.x.f.f.d., (PhD) katta ilmiy xodim*

*Qorako'Ichilik va cho'ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadqiqotlar natijasida olingan sur rangli qo'zilarining yoshi dinamikasida eksterer, tana tuzilish indeksleri hamda tirik vazn ko'rsatkichlari aniqlangan va xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** sur rangli qorako'l qo'zilar, seleksiya, eksterer, tana tuzilish indeksleri, qo'zilar yoshi, mutlaq va kunlik o'sish.

**Abstract:** In this article, the exterior, index and live weight indicators were determined and conclusions were made in the age dynamics of brown lambs obtained as a result of research.

**Key words:** Black Karakol lambs, selection, exterior, index, age of lambs, absolute and daily growth.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda hozirgi kunda sur rangli qorako'l qo'ylarini urchitish hamda ularning bosh sonini ko'paytirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, tuyoq sonini ko'paytirish va sifatli terilar yetishtirish ko'lamini kengaytirish maqsadida tizimli ravishda amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

Qorako'Ichilikda rang va rangbaranglik, jun-tola sifati kabi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda tirik vazn, eksterer, tana tuzilish indeksleri kabi ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar olingan qo'zining salomatligi, konstitusiyasi, klassi bilan bevosita bog'liqdir.

**Tadqiqotning maqsadi.** "Yangikazgan nurli diyor" MChJ dagi buxoro sur qorako'l qo'chqorlarini buxoro sur qorako'l sovliqlari bilan juftlash natijasida olingan avlodlarining yoshi dinamikasida ekstereri, tana tuzilish indeksleri hamda tirik vazn ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot manzili, manba va usullari.** Tadqiqotlar Navoiy viloyati, Konimex tumanining "Yangikazgan nurli diyor" MChJ sharoitidagi mavjud buxoro sur qorako'l qo'zilarida bajarildi. Tajribada olingan sur rangli qorako'l qo'zilarini eksterer o'lchamlari umumiy qabul qilingan usullar olindi hamda tana tuzilish indeksleri aniqlandi. Raqamli ma'lumotlarga ishlov berish variatsion statistika usullarida (N.A.Ploxinskiy, 1969) amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalari.** Shuni ta'kidlash joizki, eksterer ko'rsatkichi qorako'l qo'ylari konstitusiyasining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Eksterer

xususiyatlari bo'yicha hayvonlarning sog'-nosog'ligi, mahsuldorlik yo'nalishi, ayrim tabiiy-xo'jalik sharoitiga moslashuvchanligi, tipining ifodalanishi to'g'risida mulohaza qilish imkoniyatini beradi. Tajribadagi qo'zilarining o'sish va rivojlanishini o'rganish uchun quyidagi eng muhim tana qismlarining chiziqli o'lchamlari o'lchandi.

Tadqiqotlar natijasida olingan sur rangli avlodlarning yosh dinamikasida eksterer ko'rsatkichlarining natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**Tajribadagi qo'zilarining eksterer o'lchamlari, sm**

Juftlash sxemasi	Qo'zilar bosh soni	Yosh davrlari	Qo'zilarining eksterer o'lchamallari, sm ( $X \pm S_x$ )					
			Yag'rin balandligi	Gavdaning qiya uzunligi	Ko'krak kengligi	Ko'krak chuqurligi	Ko'krak aylanasi	Kaft aylanasi
♂sur X ♀sur	sur n=30	Tug'ilganda	37,8±0,10	33,5±0,15	9,5±0,13	14,4±0,13	40,0±0,10	5,8±0,07
		20 kunlikda	45,0±0,22	38,0±0,18	14,0±0,13	16,1±0,12	47,5±0,21	6,2±0,05
		4-4,5 oy	52,3±0,30	52,8±0,29	15,2±0,14	22,4±0,19	64,3±0,20	7,3±0,07

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tug'ilgan vaqtdan to 4,5 oylikgacha bo'lgan vaqtda olingan sur rangli qo'zilarining eksterer ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagilar: yag'rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko'krak kengligi, ko'krak chuqurligi, ko'krak aylanasi va kaft aylanasi ko'rsatkichlari o'rganildi va natijalar quyidagicha bo'ldi. Ya'ni tug'ilgandagi holat bo'yicha 37,8; 33,5; 9,5; 14,4; 40,0; va 5,8 sm bo'lganligi aniqlandi. Ushbu natijalar 20 kunlik hamda 4-4,5 oylik vaqtda ham o'rganildi. Natijalar esa jadvalda to'liq o'z aksini topgan. Ushbu vaqt oralig'ida eksterer ko'rsatkichlari jadal ravishda kechishi kuzatildi.

Eksterer ko'rsatkichlaridan tashqari tana tuzilish indeksleri ham muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Qo'ylarning konstitutsional xususiyatlari va mahsuldorlik yo'nalishini tavsiflash uchun quyidagi indekslar hisoblandi. Shu nuqtai nazardan o'rganilgan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**Tajribadagi qo'zilarining tana tuzilish indeks o'lchamlari, %**

Juftlash sxemasi	Qo'zilar bosh soni	Yosh davrlari	Qo'zilarining indeks o'lchamallari, % ( $X \pm S_x$ )				
			Uzun-oyoqlilik	Cho'zin-choqlilik	Ko'krak-dorlik	To'lish-ganlik	Suyak-dorlik
♂sur X ♀sur	sur n=30	Tug'ilganda	61,9±0,24	88,6±0,30	65,9±0,24	119,4±0,43	15,3±0,15
		20 kunlikda	64,2±0,14	84,4±0,39	96,9±0,22	125±0,60	13,7±0,07
		4-4,5 oy	57,7±0,18	100,9±0,04	67,8±0,20	121,7±0,30	13,9±0,07

Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rish mumkinki, tana tuzilish indeksleri bo'yicha olingan sur rangli avlodlar ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan .Ya'ni bunda uzunoyoqlilik, cho'zinchoqlilik, ko'krakdorlik, to'lishganlik hamda suyakdorlik indeksleri bo'yicha quyidagicha holat kuzatildi. Tug'ilgandagi va 4-4,5 oylikdagi holat bo'yicha to'lishganlik va cho'zinchoqlilik indeksleri sezilarli darajada yuqori bo'lganligi qolganlari esa ma'lum darajada o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin.

Bizga ma'lumki hayvonlarning o'sish va rivojlanishi yaxshi bo'lishi asosan quyidagi omillarga bog'liq, oziqlantirish, asrash va saqlash ya'ni texnologik omillar hamda irsiy xususiyatlariga bog'liqdir. Shunga e'tiboran olingan avlodlarning tirik vazn bo'yicha ham o'rganilgan natijalari quyidagi 3-jadvalga keltirilgan.

3-jadval

**Qo'zilarining tirik vazn ko'rsatkichlari, kg**

Juftlash sxemasi	Qo'zilar bosh soni	O'sish ko'rsatkichlari						Mutloq, kg	Kunlik o'rtacha, gr
		Tug'ilganda		20 kunlikda		4-4,5 oylik			
		( $X \pm S_x$ )	C%	( $X \pm S_x$ )	C%	( $X \pm S_x$ )	C%		
♂sur X ♀sur	sur n=30	4,1±0,05	6,0	8,7±0,08	4,7	25,8±0,16	3,3	21,7	160,7

Jadval ma'lumotlarida sur rangli avlodlarning tug'ilgandan to 4,5 oylikgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi tirik vazn ko'rsatkichlari keltirilgan. Yangi tug'ilgan vaqtda 4,1 kg ga ega bo'lgan bo'lsa, bu holat 20 kunlikda 8,7 kg ga yetgan; orasidagi farq 4,6 kg ga oshganligi aniqlandi. Bu esa umumiy mutlaq va kunlik o'sish ko'rsatkichi ham 4,5 oylikgacha bo'lgan vaqtda o'rganildi va ma'lumotlar jadvalda qayd etildi.

**Xulosalar.** Bizga ma'lumki, ♂sur X ♀sur qo'yularini juftlash natijasida olingan sur rangli qo'zilarining bir qancha ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar yuqoridagi jadvallarda o'z aksini topgan. Eksterer va tana indeksleri hamda o'sish ko'rsatkichlari orasida tug'ilgandan to 4-4,5 oylikgacha bo'lgan vaqt oralig'ida kumush rangli avlodlarda qisman ustunlik qilganligi saqlanib qolindi. Shunga e'tiboran ushu holatlarni seleksiya jarayonida e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupov S.Yu., Gaziyeu A. va boshqalar. "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma". Toshkent 2015, 22 bet.
2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969.